



SO'ZLASHUV NUTQIDA SO'ROQ SO'Z-GAPLARNING QO'LLANILISHI

Munisa Shavkatova

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti,
filologiya fakulteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada so'roq so'z-gaplarning lingvistik xususiyatlari, ularning tuzilishi hamda hosil bo'lish jarayonida so'roq yuklamalari, so'roq olmoshlari va intonatsiyaning ishtiroki tahlil qilinadi. Mavzu misollar asosida yoritilib beriladi.*

Kalit so'zlar: *so'z-gaplar, so'roq so'z-gaplar, so'roq so'z-gaplarda yuklamalar, olmoshlar, ohang*

Аннотация: *В данной статье анализируются лингвистические особенности вопросительных слов и фраз, их структура, а также роль вопросительных суффиксов в их образовании. Тема иллюстрируется примерами.*

Ключевые слова: *фразы, вопросительные фразы, нагрузки в вопросительных фразах*

Annotation: *This article analyzes the linguistic features of interrogative words and phrases, their structure, and the role of interrogative suffixes in their formation. The topic is illustrated with examples.*

Keywords: *phrases, interrogative phrases, loadings in interrogative phrases*

Ma'lumki, so'zlashuv nutqi jarayonimiz qulaylik, soddalik va ixchamlikka tayanadi. Va shu sababli ham biz ixchamlik tarafdorlari sifatida so'zlashuv nutqi jarayonida turli xil so'z-gaplar, undov, modal so'zlarga benihoya ko'p murojaat qilamiz. Shu yo'sinda biz so'z-gaplar va uning so'roq so'z-gap qismiga to'xtalib o'tamiz. O'zbek tilshunosligida so'z-gaplar muammosi E.Shodmonov, S.Usmonov, S.Saidov, B.O'rinboyev, O'.Lafasov, R.Bobokalonovlar tomonidan o'rganilgan. Bu olimlar tilimizdagi undovlar, modallar, taklif-ishora va tasdiq-inkor so'zlar xususida monografik tadqiqot olib borishgan. Bundan tashqari, M.Qurbonova, S.Mo'minov, L.Raupova, Sh.Iskandarovalarning tadqiqot ishlarida nutqning sotsiolingvistik jihatlari ochib berilib, so'z-gaplarga munosabat bildirilgan. M.Hakimov va Sh.Safarov esa tilning pragmalingvistik jihatlari tadqiq etganlar.¹⁷

So'zlashuv nutqi aloqa-aralashuv jarayonini aks ettirar ekan, bu jarayonda gaplar qisqa va ixcham bayon etilishi bilan xarakterlanadi. So'zlashuv nutqida suhbatdoshlar ega va kesim sostaviga ajralmaydigan bir so'zdan tarkib topgan gaplarni ko'p qo'llaydilar. So'z – gaplar bir so'z yoki bo'laklarga ajralmaydigan (boshqa so'zlar bilan kengaymaydigan) so'z birikmasi bilan ifodalanib, tasdiq, inkor, so'roq, his-hayajon kabi ma'nolarni ifodalaydi¹⁸. So'z – gaplar aniq vaziyat va kontekst bilan mustahkam bog'liq bo'ladi. So'z – gaplar

¹⁷ Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрограммик хусусиятлари. - док.дисс. Т., 2021, 6-б.

¹⁸ Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. –Тошкент, 1976, 95-бет.



ko'pincha modal so'zlar, undov so'zlar va shu kabilar vositasida maydonga keladi. O'zbek tilshunosligida so'z –gaplar muammosi E.Shodmonov tomonidan maxsus o'rganildi. Olim so'z-gaplarning mohiyati, spetsifikasi, grammatik belgilari, morfologik asosi, strukturasi, ma'no turlari haqida qiziqarli fikrlar bayon etdi¹⁹.

So'z-gaplarning turli xil turlari mavjud bo'lib, unda so'roq so'z-gaplarning o'zni kattadir. So'roq so'z-gaplar fikrni yanada ochiqroq tushunib yetishga, fikrni aniqlashtirish maqsadida qo'llaniladi. So'roq so'z-gaplar so'roq olmoshlari, so'roq yuklamalari va intonatsiya bilan ifodalanadi.

So'zlashuv nutqi jarayonida so'roq so'z-gaplardan foydalanayotgan bir paytda ko'pincha so'roq yuklamalaridan –mi, -a, -chi, -e yordamga keladi. –mi yuklamasi bilan hosil bo'ladigan misollarni tahlilga tortamiz:

- Menga qara, Nigora, rostmi shu gap?
- Rost (1,385)
- E, shunaqami? – Shodivoy chunonam yoyilib kuldiki, mikrofondan ovozi yeti qishloqqa eshitildi-yov (1,193)
- Shunaqami? – Malikaxon ipdek qoshini chimirdi.
- Shunaqasiz-da, xonim! – Mo'mintoy arazlab labini burdi (1,370)
- Qo'shoqvoyga bitta savol bersam maylimi? Bog'cha bolasiyam biladigan savol...
- Mayli, - dedim otamning o'rniga o'zim javob berib (1,16)
- Kelin yaxshimi?
- Yaxshi! - dedim labim titrab. (1,203)
- Eshik-ellar kadrlar yaxshimi?
- Rahmat! – yanga xavotirlanibroq hammamizga bir-bir qarab chiqdi (1,97)
- Och qolsa maylimi?! - Gulchehra o'zini tutolmay yig'lab yubordi.
- To'xta, - dedi Abdulla. – Yig'lamagin. Bir ish qilamiz... (5,25)
- Birpasgina, maylimi? Gulchehra jilmaydi.
- Mayli. (5,55)
- Ketdikmi?
- Mayli (5,23-b.) ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, so'z-gaplarga -mi yuklamasi qo'shilishi natijasida so'roq gaplar hosil bo'lgan.
- a yuklamasi bilan hosil bo'lgan so'roq so'z-gaplar:
- Bir hafta turdi chamamda o'shanda, a?
- Ha. (5,18-b.)
- Abdulla qizning qo'lini ushladi. Yaxshi-a?
- Juda ham. (5,41-b.)
- Ba'zan so'zlashuv nutqida -a yuklamasi mustaqil so'roq-gap sifatida ishlatiladi. Bunday so'z-gaplar so'zlovchi suhbatdoshining fikrini anglamay qolganda ishlatiladi. Masalan:
- Aziz akamdan ayrilib qoldik!

¹⁹ Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. - Самарқанд, 2009, 89-б.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



- A? (1,359-b.) mana shu misoldan ko'radigan bo'lsak, bu anglamay qolish yoki qattiq hayajonda ekanligini sezish mumkin.

So'roq so'z-gaplarning shakllanishida so'roq intonatsiyasi muhim rol o'ynaydi. Ba'zi so'roq so'z-gaplar so'roq intonatsiyasi ta'sirida mustaqil so'z-gap bo'lib keladi va turli xil ma'nolarni jamlashga xizmat qiladi. Masalan:

- Nahotki Gulchehra homilador bo'lsa? (5,174)
- Nahotki homiladorlik belgisi bo'lsa? (5,175)

Fikr bayon etishning eng ixcham va qulay shakliga aylanib borayotgan so'z-gap nutq birligi sifatida tilda yashar ekan, u so'zlashuv nutqida mahsuldor shakllardan sanaladi.

So'roq so'z-gaplar, tub mohiyati bilan, dialogik nutq shakli sifatida bir so'zdan yoki so'z birikmasidan iborat bo'lib, tasdiq, inkor, suhbatdosh fikriga qo'shilish, qo'shilmaslik rozilik yoki norozilik va turli xil ma'no ottenkalarini ifodalaydi.

Tahillar shuni ko'rsatadiki, so'zlashuv nutqida so'roq so'z-gaplar muhim nutqiy birlilar hisoblanadi. Ular asosan, so'roq yuklamalari [-mi, -chi, -a, -e] va so'roq olmoshlari yordamida hosil qilinadi. So'roq so'z-gaplar dialogik nutqda fikrni aniqlashtirish, suhbatdoshning munosabatini bilish hamda hissiy-ta'sirchanlikni kuchaytirishda muhim vazifani bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Hoshimov O'. Ajdarning tavbasi. – Toshkent, 2016. 424-b.
2. Каримова З. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрогматик хусусиятлари. - док.дисс. Т., 2021,
3. Ўринбоев Б. Ўзбек сўзлашув нутқи синтаксиси. - Самарқанд, 2009. -б
4. Ўзбек тили грамматикаси. 2 том. Синтаксис. –Тошкент, 1976.
5. Umarbekov O'. Odam bo'lish qiyin. – Toshkent, 2019. 212-b.